Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317284

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT.

Umarova Feruzabonu Toshmamat-Qizi
TDIU, Andijon Fakulteti “Menejment” Yonalishi Talabasi
E-mail:feruzabonuumarova9@gmail.com

Bizga ma’lumki iqtisodiy tizimlar va ulardagi boshqaruv jarayoni, tashkil etish usullari davrida zamonaviy kompyuter va tizimlarining o’rni, vazifasi beqiyosdir.

Jarayondagi muammolarni va uning menejment (boshqaruv) tizimidagi muammolar va ularning yechimi kunning dolzarb muammolaridandir.

Ushbu jarayonda, oxirgi o’n yilliklari davomida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari va tizimlari vositalaridan foydalanish tizimli menejmentning xususiyatiga, hajmiga, funksiyalariga sezilarli ta’sir ko’rsatdi.

Zamonaviy menejment bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat yurituvchi firmalar, korxonalar, tashkilotlarni boshqarishning vujudga kelgan tizimi sifatida ularning ishlab chiqarish – xo’jalik faoliyatini samarali rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilishini ko’zda tutadi. Ushbu ta’sir menejerning zamonaviy axborot texnologiyasi sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirishga bo’lgan ehtiyojda namoyon bo’lmoqda.

Bunda tizim menejeri SHEHM uchun vazifalarni qo’yuvchi va ish beruvchi sifatida hamda SHEHM foydalanuvchisi sifatida ishtirok etdi va rivojlandi.

Har bir tizim menejeri nafaqat ma’lumotlarga ishlov berish bo’yicha ish beruvchiga va o’z kompyuter ish stantsiyasining faol foydalanuvchisiga, balki SHEHMning eng yangi imkoniyatlarini o’zlashtirish qobiliyatiga ega bo’lgan mutaxassisga ham aylandi.

Ikkinchi davr SHEHMli tizimlarning boshqaruv tizimlari va jarayonlarining umumiy tarkibiy tuzilishidagi tarkibiy rolini tadqiq etish va tushunish bilan bog’liq.

Uchinchi davr tizim menejeri tomonidan axborot texnologiyasining o’zlashtirilishi bilan tavsiflanadi.

Boshqaruv maqsadlariga qarab kompyuter tarmog’ining tizim administratorlari va ma’lumotlar bazalari orqali boshqaruv jarayoni uchun ishonchli axborotni, boshqaruv ob’ektining to’liq kuzatilishini, shaxsiy ishning axborot uchun qulayligini ta’minlash mumkin.

Tizim menejeri samarali boshqaruv qarorlarining konstruktori sifatida ishtirok etadi, bu unga axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlarini, ma’lumotlar bazasini, MATni loyihalashtirish va rivojlantirish vositalarini tanlashda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi.

Tarmoq administratori boshqaruvchi vazifasini bajaradi va ma’lumotlar bazalari bilan birga u axborot texnologiyasining qabul qilingan qarorlarning ishonchli tarzda amalga oshirilishini ta’minlovchi eng yaxshi variantini shakllantiradi.

Published: 28.03.2024

Cite this article: Umarova Feruzabonu Toshmamat-Qizi (2024). Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari va menejment. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317284

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Boshqaruv ob’ektlari injeneringi ayniqsa menejer axborot tizimlarini loyihalashtirish va rivojlantirish tizimlaridan foydalanishda o’ta samarali bo’lib, ular axborot va ijro tarkibiy qismlar muvozanatini, samarali boshqarish strategiyasi va taktikasini real tushunishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, tizim menejeri ofisda samarali ishlash shaxsiy axborot bilan qo’llab-quvvatlash vositalaridan foydalanishni bilishi kerak.

Axborotning korxonani boshqarish uchun ahamiyati, birinchidan, shu bilan belgilanadiki, u menejerning alohida turdagi eng muhim resursi hisoblanadi. Har qanday darajadagi menejer o’z tasarrufidagi resurslarni oldinga qo’yilgan maqsadlarga erishish uchun o’zgartiradi va rivojlantiradi. Menejerning resurslari jumlasiga an’anaviy resurslar – tabiat, mehnat va jamoa bilan bir qatorda axborot va vaqt ham kiradi.

Axborot to’g’risidagi bilimlarni to’plashning butun tarixini uchta davrga bo’lish mumkin. Ularning asosida olimlarning axborotning tabiatiga nisbatan qarashlari yotadi. Dastlab axborot ijtimoiy tizimlarda aniqlangan, axborot jarayonlari faqat insonga va insonlar hamjamiyatiga nisbatan ko’rib chiqildi.

Amerikalik muhandis K.Shennonning «Aloqaning matematik nazariyasi» nomli maqolasi hamda Massachusset texnologiya institutining professori N.Vinerning keyinchalik mashhur bo’lgan «Jamiyatda va hayvonot olamida kibernetika» nomli monografiyasi chop etilgan 1948 yil axborot tushunchasini ilmiy jihatdan tadqiq etishdagi chegara yili hisoblanadi. Natijada ikkinchi davr – axborot nazariyasini tizimli bayon etish va tuzish davriga asos solindi, axborot tushunchasining o’zi esa, ijtimoiy tizimlardan tashqari, tirik organizmlar va ularning hamjamiyatlariga, shuningdek sun’iy kibernetik tuzilmalarga, aniqrog’i axborotni qayta ishlashga qodir bo’lgan o’zini o’zi boshqaruvchi va o’zini o’zi tashkil etuvchi tizimlarga yoyildi. Axborotni tasniflash korxonani boshqarish tizimining axborot kichik tizimini shakllantirish va takomillashtirish uchun zarur. Axborot turli belgilar bo’yicha tasniflanadi.

Tashqi axborot korxonadan tashqarida, ichki axborot esa uning ichida paydo bo’ladi. Ichki axborot manbalari boshqariladi, shuning uchun axborot oqimlarining davriyligini, muddatlarini va hajmlarini reglamentlash mumkin va axborot kichik tizimlarini yaratishda shunday qilinmoqda.

Faol foydalanish vaqtiga ko’ra shartli-doimiy va o’zgaruvchan axborot ajratiladi. SHartli-doimiy axborot – bu uzoq vaqt mobaynida o’zgarmasdan qoladigan yoki kam o’zgarishlarga duchor bo’ladigan axborot. Undan boshqaruvning bir necha tsikllarida foydalaniladi. Bunday axborot jumlasiga, masalan, reglamentlovchi axborot – korxonaning Ustavi, bo’limlar va xizmatlar to’g’risidagi nizomlar, boshqaruv xodimlarining lavozim yo’riqnomalari, shuningdek korxona kadrlarining tarkibi to’g’risidagi axborot va hokazolar kiradi. O’zgaruvchan axborot, odatda, ishlov berishning bir tsiklida foydalaniladi. Bu, masalan, smenalik-sutkalik topshiriq, kundalik ishlab chiqarish va h.k. to’g’risidagi axborot.

O’zgartirish bosqichlari bo’yicha dastlabki va hosila axborot ajratiladi. Dastlabki axborot – bu turli xildagi iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish va qarorlar qabul qilish uchun asos sifatida foydalaniladigan axborot. U, o’z navbatida, sotuvlar, ishlab chiqarish jarayoni, tashqi muhit monitoringining borishini bevosita kuzatish jarayonida olinadigan boshlang’ich axborot va keyingi ishlov berish uchun to’planadigan oraliq axborotga bo’linadi.

Hosila axborot – bu turli xildagi iqtisodiy hisob-kitoblar natijasida olinadigan tahliliy axborot. Unga, shuningdek, yakuniy axborot, ya’ni amalga oshirilgan boshqaruv qarori ham kiradi.

Korxonani boshqarish tizimi nuqtai nazaridan kirish va chiqish axborotiga ajratiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki taqdim etilish shakliga ko’ra ko’z bilan ko’riladigan, eshitiladigan va ham ko’z bilan ko’riladigan, ham eshitiladigan axborot ajratiladi. Ushbu tasnif menejerning axborot rejimini maqbullashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Bildirilgan fikr vav muloxazalar asosida shuni aytishimiz mumkinki ZAKTlarning roli va o’rni boshqaruvchining kundalik ish jarayonida oddiydan murakkabga tomon yetaklaydi. Menejment mutaxassisini ishini tezlashtiradi va kelajakni belgilashiga amaliy ko’nikma va yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Основы менеджмента: учебное пособие. / Л.В. Плахо ва, Т.М. Анурина, С.А. Легостае ва и др.- М.: КНОРУС, 2009.
2. О.С. Виханский Стратегическое управление / М., Гардики, 2002.
3. Р.С. Галькович, В.И. Набоков Менеджмент / Пермь, 2002.
4. Н.Қ.Йўлдошев, О.С.Қозоқов Менежмент / Т, “Фан” 2004.
5. Н.Қ. Йўлдошев, М.Р. Болтабоев, О.Қ. Рихсимбоев, Б.О. Ғаниев Стратегик менежмент / ТДИУ 2003.

MENEJMENT VA UNING TASHKILIY TAMOILLARI

Umarova Feruzabonu Toshmamat-Qizi
TDIU, Andijon Fakulteti “Menejment” Yonalishi Talabasi
E-mail:feruzabonuumarova9@gmail.com

Ishlab chiqarish jarayoninning asosiy elementi bo’lib boshqaruv jarayoni yoki menejment tizimi hisobdanadi.

Ushbu tizimning shakllanish va shakllantirish usullarini bilish xar bir mutaxassisning vazifasidir.Maqolamizda menejment va uning tashkil etish usullari haqida fikr bildiramiz.

Menejment – ko’plab tarkibiy qismlar, ularning xususiyatlari va tomonlariga ega bo’lgan murakkab, ko’p o’lchamli hodisa hisoblanadi.